

ANESTEZIYADAN KEYINGI GIPERALGEZIYA

Mirzayev D.A.*“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti**Toshkent sh., O‘zbekiston*

Kirish. Ma’lumki, inson organizmi nerv tizimi ya’ni sezgi a’zolari orqali turli xil tashqi ta’sirlarga javob beradi. Shunday ta’sirlardan biri – og‘riqdir. Turli xil tan-jarohati va bemorda o‘tkaziladigan jarrohlik amaliyoti vaqtida og‘riq juda kuchli bo‘ladi va uning davom etishi va bartaraf etilmasligi bemor hayotiga xavf soladi.

Anesteziyada qo‘llaniladigan dori vositalarning vazifasi bemorlarda kuzatilayotgan kuchli og‘riq, psixomotsional buzilishlar, qo‘rquv kabi ta’sirlarni bartaraf etishdan iborat. Biroq, og‘riq qoldiruvchi dori vositalar ijobiy ta’sirlari bilan birga salbiy ta’sirlari ham mavjud bo‘lib, bu ta’sirlar giperalgeziya holatini yuzaga keltirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: og‘riq, anesteziya, opioidlar, giperalgeziya

Mavzuning dolzarbligi.

Og‘riq muammosi va og‘riqsizlantirish barcha shifokor mutaxassislar e’tiborini jalb qiladi, chunki inson hayotini saqlab qolish jarayonidan keyin muhim vazifalardan biri og‘riqni davolash hisoblanadi.

Hozirgacha og‘riq sezgisi retsepsiyasi o‘tkazilishi va qabul qilinishi masalalari hal qilinmagan. Bu masala bo‘yicha ikki bir biriga qarama qarshi fikrlar bor. Bir nazariyaga ko‘ra og‘riq spesifik holat bo‘lmasdan, uni chaqiruvchi sezgini sezadi xolos. Tanadagi holatni taktil sezuvchan retseptorlar ta’sirlanishi og‘riqqa aylanishi mumkin. Bunday vaqtda qo‘zg‘atuvchi omil kuchi yuqori bo‘lishi kerak.

Hozirgi vaqtda og‘riq to‘g‘risida boshqa nazariya keng tarqalgan va 4 spesifik nazariya deb aytiladi. Unga ko‘ra organizmdan maxsus og‘riq retseptorlari, maxsus og‘riqni tarqatuvchi afferent yo‘llar, bosh miyada og‘riq informatsiyasini taxlil qiluvchi maxsus tuzilmalar mavjud [2].

Og‘riqsizlantirish maqsadida narkotik analgetiklar qo‘llaniladi. Narkotik analgetiklarni tizimli qo‘llanilishida ular bosh miya po‘stlog‘i, miya ustuni, orqa miya opiat retseptorlari bilan bog‘lanadi. Opiatlarning analgetik ta’siri nositseptiv impulsni o‘tkazish va baholashda ishtirok etadigan neyronlar metabolizmini tormozlanishi bilan bog‘liq [4].

Narkotik analgetiklar epidural yoki subaraxnoidal bo‘shliqlarga yuborilganda harakat va vegetativ funksiyalarning buzmasdan tanlab analgeziya chaqiradi.

Biroq, o‘tkazilgan ko‘plab klinik tadqiqotlar, opioidlar qo‘llanilganda ularning nafas buzilishi, ko‘ngil aynash, qabziyat, ruhiy va fiziologik qaramlik kabi nojo‘ya ta’sirlari bilan

birga aksariyat hollarda og'riqni kuchayishi to'g'risida ma'lumotlar uchramoqda. Ushbu holatlar opioid indutsirlangan giperalgeziya (OIG) holati bo'lib, bemorda nositseptiv sensitizatsiya natijasida og'riqni sezishni kuchayishi bilan xarakterlanadi [1-3].

Tadqiqot maqsadi.

Og'ir jarohatlar va bosqichli o'tkaziladigan operatsiyalarda va ulardan keyin uzoq vaqt opioidlar qo'llanilganda bemorlarda giperalgeziya holatini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va uslublari

Tadqiqot uchun MHKGning travmatologiya va abdominal jarrohlik bo'limida 2010-2013 yillarda davolangan 18 dan 60 yoshgacha bo'lgan 87 ta bemorning kasallik tarixi retrospektiv taxlil qilindi. Bemorlar og'irlik darajasi va uzoq vaqt og'riqsizlantirishga muhtojligi belgilari bo'yicha ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruhni tashkil qilgan og'ir jarrohlik amaliyoti o'tkazgan bemorlar soni - 53ta(61%), ikkinchi guruhga 34ta (39%) operatsiyadan keyin og'riq kuchli bo'lmagan bemorlar kiritildi.

Birinchi guruh bemorlariga og'riqsizlantirish maqsadida opioidlar va nonarkotik analgetiklar, psixotrop dori moddalari buyurilgan. Ushbu bemorlarda narkotik analgetiklarni tojo'ya ta'sirlarini og'irlik darajasini baholash maqsadida 1 dan 5 gacha bo'lgan CTCAE (Common Terminology Criteria for Adverse Events) tizimidan foydalanildi. Giperalgeziya holati nojo'ya ta'sirlari klinik simptomlar va belgilar mavjudligi bo'yicha baholandi.

I. Qo'llanilgan opioid dori vositalar:

1) Promedol(Trimeperidine) 20 mg/ml.

Klinik-farmakologik guruhi- opiat retseptorlari agonisti

Farmako-terapevtik guruhi- narkotik-analgetik vosita

2) Fentanil(Fentanyl) 0.05 mg/ml

Klinik-farmakologik guruhi- opiat retseptorlari agonisti

Farmako-terapevtik guruhi- narkotik-analgetik vosita

3) Nalbufin gidroklorid 10mg/ml

Klinik-farmakologik guruhi - opiat retseptorlari agonist-antagonisti

Farmako-terapevtik guruhi - opiat analgetik vosita

II. Nonarkotik dori vositalar: psixotrop moddalar - Sibazon, ketamin, droperidol, verzeepam, GOMK, nonarkotik yallig'lanishga qarshi analgetiklar.

Shuningdek, opioidlar farmakologik ta'siri bo'yicha taqqoslandi (1-jadval)

Morfin guruxiga kiruvchi preparatlarning farmakologik ta'siri bo'yicha taqqoslanishi.

1-jadval

Preparat nomi	Og'riq qoldiruvchi	Nafas markazig	Yo'tal markazig	Sedat iv	Eyfori ya xolati	Ta'si r	Qara mlik
------------------	-----------------------	-------------------	--------------------	-------------	---------------------	------------	--------------